FALSAFA

UDK: 101.9 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a22

IBN SINONING NOCHIZIQLI TAFAKKUR ASOSIDAGI FALSAFIY QARASHLARIDA SINERGETIK TAMOYILLAR

ПРИНЦИПЫ СИНЕРГЕТИКИ В ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ИБН СИНЫ НА ОСНОВЕ НЕЛИНЕЙНОГО МЫШЛЕНИЯ

PRINCIPLES OF SYNERGETICS IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF IBN SINA ON THE BASIS OF NONLINEAR THINKING

Bahodir Raxmanov[1]

[1]**Bahodir Raxmanov** – Samarqand davlat universiteti falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada ajdodlarimiz merosini sinergetik metodologiya nuqtai nazaridan o‘rganishning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Muallifning ta’kidlashicha, bu globallashuv sharoitida zamonaviy muammolarga oqilona yechim topish uchun katta ahamiyatga ega. Maqolada o‘tmishdagi tadqiqotlarning mafkuraviy talqini shubha ostiga olinadi va o‘zligimizni yaxshiroq tushunish uchun zamonaviy falsafiy metodologiyadan foydalanish taklif etiladi. Shuningdek, ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda yoshlarga boy tarixiy o‘tmish haqida ma’lumot berish muhimligi ta’kidlanadi. Bundan tashqari, maqolada buyuk mutafakkirlarimizning falsafiy qarashlari va kashfiyotlarining zamonaviy ilm-fan rivojidagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Ushbu maqola kelajakdagi tadqiqotlar uchun qimmatli ilmiy va nazariy manbani taqdim etadi.

Аннотация

В статье рассматривается важность изучения наследия наших предков с точки зрения синергетической методологии. Автор говорит, что это имеет большое значение для поиска разумных решений современных проблем в условиях глобализации. В статье подвергается сомнению идеологическая интерпретация прошлых исследований и предлагается использовать современную философскую методологию для лучшего понимания нашей идентичности. Также подчеркивается важность информирования молодежи о вкладе наших предков в мировую цивилизацию и богатое историческое прошлое в формировании чувства национальной гордости. Кроме того, в статье говорится о значении философских взглядов и открытий наших великих мыслителей в развитии современной науки. Эта статья представляет собой ценный научный и теоретический ресурс для будущих исследований.

Abstract

The article explores the importance of studying and the heritage of our ancestors using a synergistic methodology. The author argues that this is of great importance for finding rational solutions to modern problems in the context of globalization. The article challenges the ideological interpretation of past research and suggests using modern philosophical methodology to better understand our identity. It also highlights the contribution of our ancestors to world civilization and the importance of educating young people about a rich historical past in order to create a sense of national pride. In addition, the article points to the significance of the philosophical views and discoveries of our great thinkers in the development of modern science. This article offers a valuable scientific and theoretical source for future research and progress.

Kalit so‘zlar: *Ibn Sino, nochiziqli tafakkur, sinergetika, tamoyil, tibbiyot, barqarorlik, berqarorlik, fazo va vaqt.*

Ключевые слова: *Ибн Сина, нелинейное мышление, синергетика, принцип, медицина, устойчивость, стабильность, пространство и время.*

Key words: *Ibn Sina, non-linear thinking, synergetics, principle, medicine, stability, stability, space and time.*

KIRISH

Dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan, bugungi kungacha erishilgan ko‘plab ilmiy-falsafiy ixtiro va kashfiyotlarga ham ibtidoiy g‘oya va qarashlar manbai bo‘lgan ulug‘ vatandoshimiz, mashhur alloma, qomusiy olimlarimizdan biri Abu Ali Ibn Sino hisoblanadi.

Jahon ilm-fanida o‘z ta’limot va falsafasi ila kirib kelgan, Ovrupoda Avitsenna nomi bilan mashhur bo‘lgan, o‘rta asrlarda tibbiyot fanining poydevorini yaratgan Ibn Sino [1,191] (asl nomi Husayn, otasining ismi Abdulloh) ontologiya, gnoseologiya, inson va boshqa falsafa fanlari masalasida qimmatli ilmiy xulosalar va mulohazalarni bayon etgan. Shuningdek bu alloma shaxsiyati komil inson siymosining yorqin namunasi bo‘la oladi. U Sharq falsafasida birinchilardan bo‘lib inson ruhiyati va jismoniy holatini ilmiy-nazariy tadqiq etib, undagi uyg‘unlik va o‘ziga xoslikni mushohada etgan faylasuf hisoblanadi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 2-sentyabrda Toshkentda, Islom Taraqqiyot Banki boshqaruv kengashining 46-yillik anjumanida nutq so‘zlab, ajdodlarimizning

bebaho merosi bugungi kunda ham o‘z mohiyati va ahamiyatini yo‘qotmasdan kelayotganini, jumladan, Ibn Sinoning ilmiy merosi hamon qiymatini yo‘qotmaganini aksincha, eng og‘ir holatlarda ham yechim sifatida udan foydalanilayotganini shunday e’tirof etadi: “...dunyo koronavirus pandemiyasi bilan to‘qnashganda, Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti birinchi navbatda Abu Ali ibn Sino tavsiya qilgan karantin usullaridan foydalanishga chaqirganini eslash o‘rinlidir” [1,121].

ADABIYOTLAR TAXLILI

Ibn Sinoning ilmiy va badiiy ijodi bilan bog‘liq ko‘pgina risola va kitoblarda negadir uning tibbiyot fani va adabiyot ilmining rivoji haqida kengroq to‘xtalib o‘tishgan. Uni birinchi hakim, shoir va mutafakkir deb tanishtirishadi. Shu jarayonda Ibn Sinoning asli buyuk faylasuf ekanligi nazardan chetda qolgandek go‘yo. Tarixiy manbalarda uning 450 dan ziyod asar yozgani qayd etiladi. Afsuski bizgacha bu bebaho xazinadan 160 tasi yetib kelgan, xolos. Qizig‘i shundan o‘sha ma’naviy merosning 80 tasi falsafa, 43 tasi esa tabobatga, qolganlari esa boshqa fanlarga oid. “Ma’lum bo‘ladiki, allomaning falsafiy merosi tibbiy mavzudagi asarlariga qaraganda qariyib ikki baravar ko‘p” [2,5]. Demak, uni o‘z zamonasining yetuk faylasufi va qomusiy olimi deyishga asos bor.

Ibn Sinoning hayoti va faoliyati, ilmiy merosi nafaqat Sharqda, balki G‘arb mamlakatlarida ham o‘rta asrlardan buyon o‘rganilib kelingan. O‘tgan asrda sobiq ittifoq davridagi olimlardan E.Bertels, Ayu.Yakubovskiy, A.Barisov, P.Faktorovich, S.Ayniy, S. Rahimov, Yu.Jumaboyev, Sh.Jo‘rayev, A.Mirzoyev, U.Sultonov, I.Mo‘minov, U.I.Karimova, A.Irisov allomaning ijtimoiy-faslafiy, axloqiy va ilmiy merosini tadqiq etishgan. Ammo ularning deyarli barchasi o‘sha davr ruhi va mafkurasiga muvofiq sharhlangan va xulosalar qilingan. Chet el olimlaridan, jumladan, arab faylasufi Jamil Salibo, Muhammad Usmon Najotiy, Alber Nasriy Nodir, Taysir Shayx al Ard, eronlik va turk olimlardan A.Zulmajd, Muhammad Shohvardiy, P.Morverij, Ya.Mahdaviy, Umar Farrux, yevropa olimlaridan Ye.Bishman va boshqalar Ibn Sinoning boy ma’anaviy merosini o‘rgangan va ko‘plab risola, ilmiy maqolalar chop etilgan.

Mustaqillik yillarida esa Ibn Sino ilmiy merosini Sh.Hamidulin, H.Hikmatullayev, A.Hamidov, E.Ochilov, Sh.Jurayev va boshqalar o‘rganib, muhim ilmiy ma’lumotlarni e’lon qilishgan.

“Biz mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband singari aziz avliyolarimiz, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek singari allomalarimiz asarlarini tom ma’noda qaytadan kashf etdik. Lekin bu ulug‘ ajdodlarimizning jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga qo‘shgan buyuk hissasini yoshlarimiz biladimi? Albatta, biladi. Ammo, afsuski, aksariyat hollarda umumiy, yuzaki tarzda biladi” [3,18].

Allomaning ilmiy-falsafiy merosi doirasi hamon yurtimiz va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan qizg‘in o‘rganilib kelinayotgan bo‘lsa-da uning falsafiy merosiga sinergetik yondashuv asosida hali biror bir olim tomonidan mukammal tadqiq etilgani yo‘q. Tadqiqotimiz yangiligi va o‘ziga xosligi ham shundaki, bugungi kunga qadar Ibn Sinoning falsafiy qarashlari nuqtai nazardan uni metafizik, perepatitik maktab vakillarining davomchilaridan biri, Arastuning izdoshi sifatida qarashgan bo‘lsa, biz quyidagi ilmiy tahlilimiz orqali uning falsafiy va axloqiy, hatto tibbiyotga oid qarashlari va ta’limotlarida sinergetik g‘oyalar mavjudligini ko‘rib chiqamiz. Bu masalada avvalroq ham murojaat qilib, ilmiy xulosalarimizni aytgan edik [1,25].

Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy qarashlarini o‘rganishda ikki muhim narsaga e’tibor qaratish kerak:

- uning o‘ziga xos shaxsiyati va favqulodda iste’dodi;
- alloma yashagan ijtimoiy-ma’naviy muhit.

Gap shundaki, ko‘pgina tadqiqotchilar Ibn Sinoning hayoti va faoliyati haqida fikr bildirishganda, uning o‘ziga xos shaxsiyati, fenomeni va aqlga sig‘mas darajadagi ilmiy kashfiyot, ixtiro va faoliyatini an’anaviy hodisa sifatida qabul qilishgan. Biroq olib borilayotgan ilmiy izlanish va mushohadalar uning takrorlanmas, insoniyat tarixida kam takrorlanadigan itse’dod va qobiliyat egasi ekanligini namoyon etmoqda. Bunday xususiyat va sifatga ega insonlar esa vunderkindlar deyiladi.

Vunderkind (nem. Wunderkind, aynan — ajoyib bola) — zo‘r va favqulodda noyob qobiliyatlarini, faoliyatning biror turiga layoqatini barvaqt namoyon etuvchi bola deganidir. Bunday bolalarga tabiiy iste’dod beriladi yoki bunday bolalar ilohiy xususiyatga ega degan noilmiy qarashlar

mavjud. Ammo so‘nggi kuzatuv va ilmiy izlanishdardan xulosa qilinmoqdaki, daho shaxslarga hech qanday ortiqcha noinsoniy yoki insondan yuqoriroq xususiyat, sifatlar yo‘q. Faqatgina tinmas mashaqqat, qulay sharoit, tafakkur va xotira imkoniyatidan cheksiz foydalanish orqaligina daho shaxslar voyaga yetishadi. Bu borada hamon bahs munozaralar va ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Masalaning bu tarafi biz uchun ahamiyatli emas, muhim tomoni biz bugungi kunda insoniyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan daholar qanday qilib bu qadar natija va marraga erishganlaridir. Bu masalaning yechimi o‘z navbatida yurtimizda daholar vujudga kelishiga zamin yaratadi. Afsuski, daholik va favqulodda iste’dod egalarining shaxsiyatlari mamlakatimizda chuqur o‘rganilmagan. Ya’ni Markaziy Osiyo daho shaxslarining hayoti va ijodlari yetarli tadqiq etilmaganini, bu borada psixologik, falsafiy tadqiqotlar yo‘qligini, chop etilgan asarlar esa ta’rif va tavsif va shunchaki faxrlanish hissidan iboratligi uchun biror yangilik yo‘qligini tan olishimiz lozim. Aks holda Ibn Sino qatorida Imom Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Navoiy, Mirzo Bobur kabi allomalarimizning shaxsiyatlarini, hayoti va ijodlarini daholikning o‘ziga xos xususiyat va sifatlari doirasida o‘rganilsa, bizning xalqimiz ham buyuk kashfiyot va ixtirolarga qodir ekanliklarini butun insoniyat e’tirof etgan bo‘lar edi.

Ibn Sino o‘z davrida, umuman insoniyat tarixida vunderkind, ya’ni kamdan kam yetishib chiqadigan daho hisoblanadi deyish mumkin. Fikrimiz isboti sifatida uning hayoti va faoliyati hamda ilmiy -falsafiy merosidan quyidagi dalillarni keltiramiz:

✓ Ibn Sino 10 yoshidayoq Islom dinining muqaddas kitobi “Qur’on”ni yod olib, adab darslarini to‘la o‘zlashtirgan. Bu borada u o‘zining tarjimai holida “O‘sha kezlarda men biror kechaning ham oxirigacha uxlamas, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug‘ullanmas edim” [5,14] deb yozadi.

✓ Boshqa bilimlar qatori o‘n olti yoshidayoq u o‘z davrining tibbiyot ilmini to‘lib o‘zlashtirib, mahoratli tabib sifatida elga tanilgan. Tib ilmi ilmidagi muvaffaqiyati haqida Ibn Sinoning o‘zi shunday deydi: “...hatto bilimdon tabiblar ham kelib, huzurimda tib ilmidan dars oladigan bo‘ldilar” [5,15].

✓ Turli manbalarga muvofiq, Ibn Sind 450 dan ortiq asar muallifi hisoblanadi. U ilk kitobini 21 yoshida yozganligini o‘z tarjimai holida quyidagicha bayon etadi: “Abulhasan al-Aruziy degan bir qo‘shnim bor edi. U mendan bu ilmlar (ya’ni barcha egallab olgan bilimlari va xulosalari B.R.)ning hammasini o‘z ichiga oladigan bir kitob yozib berishimni so‘ragan edi. Men unga “Al-Majmu’” (“To‘plam”)-ni tuzib berdim, kitobning otini ham shunday – “To‘plam” deb qo‘ydim. Unga riyoziyotdan boshqa barcha ishlarni kiritdim. O‘shanda yigirma bir yoshda edim” [5,30]. Xulosa qilish mumkinki, Abu Ali ibn Sino shu yoshda o‘ziga xos tarzda allaqachon darslik yozgan. Atigi 56 yil umr ko‘rgan va 36 yillik ilmiy faoliyati davomida 450 ta asar yozishi bugungi taraqqiyot uchun ham hayratlanarlidir. (Shartli ravishda 450 ta asarni 36 yilga bo‘lsangiz, yiliga 12-tadan ziyod asar to‘g‘ri keladi). E’tiborli tomoni, allomaning bizgacha yetib kelgan 160 dan ziyod asarini agar tahlil etsak, har bir asarda yuzlab ilmiy kashfiyotlar, yangiliklar mavjud va ularning ilmiy-falsafiy ahamiyati necha asrlar o‘tsa ham hamon qiymatini yo‘qotgan emas.

✓ Abu Ali Ibn Sinoning fizika, astronomiya, kimyo, tibbiyotga oid ilmiy kuzatish va xulosalari bugungi kunda eng rivojlangan fan texnika, hatto nano-texnologiyalar darajasidagi aniqlikka ega. O‘sha davrda uning tibbiyot sohasiga oid xulosalari, tashxis qo‘yishi bugungi kundagi tibbiyot asbob-uskunalar orqali aniqlanayotgan tashxis va xulosalar bilan tengdir. Birgina misol: “Bosh miyada sezish va fikrlash markazlari mavjud. Miyaning old qismida sezish, o‘rta qismida sezgilarni umumlashtirish, orqa qismida yodda saqlab qolish markazlari bor”. Bu fikr qanday qilib va qay tarzda ulug‘ hakimning miyasida paydo bo‘ldi?! Axir miyaning bu sifatlarini uni yorib ko‘rib yoki qavatma-qavat kesib ham ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydiku! Alloma miya xususida fikr yuritganda, uning nafaqat tuzilishini, balki shunday tuzilishga ega ekanining sababini ham ilmiy jihatdan asoslaydi. Miya qorinchalari, ya’ni to‘rtinchi (Ibn Sinoda orqa) va uchinchi (Ibn Sinoda o‘rta) qorinchalari o‘rtasidagi tutashtiruvchi yo‘lni aniq tasvirlaydi. Afsuski, bu yo‘l hozirda Silviyev vodoprovodi deb yuritiladi. Axir u ingichka igna qalinligidagi yo‘l-ku! Ibn Sino uni qanday payqadi ekan?! Aql bovar qilmaydi!” [7,148].

Bu kabi ko‘plab argument va ma’lumotlarni yana keltirish mumkin. Buning uchun buyuk allomaning hali hanuz to‘liq o‘rganilmagan yana yuzlab asarlarini o‘rganish va tadqiq etish talab etiladi.

FALSAFA

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ibn Sinoni jahon hamjamiyati tomonidan ham insoniyat tarixida takrorlanmas shaxs ekanligini quyidagicha tavsiflaydi: “Genial insonlarning qoldirgan izlarini asrlar osha o‘zida saqlab kelayotgan fan, adabiyot va san’atning buyuk durdonalari bor-ki, ular barcha xalqlar uchun ham umumbashariy xazinadir. Bu madaniy meros insoniyat uchun bitmas-tuganmas manba hisoblanadi va uning oldida umuminsoniy kelishuv va hamkorlik istiqbollarini ochib beradi. Ibn Sino o‘zining ijodi hamda yaratgan asarlarining ahamiyati jihatidan butun insoniyatga tegishlidir. Uning faoliyati haqiqat va aql-idrok talablariga asoslangan edi” [8,132].

Xullas, Abu Ali ibn Sinoning shaxsiyati, iste’dodi va hayotiy faoliyatini yoshlarimizning barkamol bo‘lib voyaga yetishlari uchun namuna va o‘rnak qilib ko‘rsatish davr talabidir.

Ko‘pgina ilmiy-falsafiy adabiyotlarda, jumladan, o‘zimizning falsafaga oid darslik va kitoblarda Ibn Sinoni Arastu izdoshi, uning g‘oyalarini sharhlovchi va rivojlantirgan faylasuf deb izohlashadi. Bu g‘arbona yondashuv, ya’ni yevropatsentrizmning ta’siri natijasi va mutafakkirga berilgan biryoqlama bahodir.

Birinchidan, Abu Ali ibn Sinoning falsafiy ta’limoti va qarashlarida Arastudan farqli tomonlar va o‘ziga xosliklar nihoyatda ko‘p.

Ikkinchidan, u Arastu kitoblarini nafaqat sharhlagan, balki o‘zining xolis munosabatini bayon qiladi va o‘z qarashlari Arastuning qarashlaridan farqlanishini bildiradi. Bu haqda shogirdi Abu Ubayd al-Juzjoniy shunday deydi: … men Shayxdan Aristotel kitoblariga sharh yozib berishni iltimos qildim. Shunda u (ya’ni Sino): “Bu ishga hozircha qo‘lim tegmaydi, vaqtim yo‘q. Lekin agar sen rozi bo‘lsang, shunday qilaman: men u kitobga bu ilmlardan nimani to‘g‘ri deb hisoblasam, o‘shalardan kiritaman-da, muxoliflar bilan munozara qilmayman va ularning fikrlarini rad ham qilib o‘tirmayman [8,36].

Alloma haqida bitilgan ko‘plab adabiyotlardagi ma’lumotlarni tahlil etsak, uning hayoti oson kechmagani, shunday bo‘lsa-da ilm o‘rganish va o‘rgatishdan aslo chekinmaganini, muntazam ilmiy izlanishlar olib borganiga guvoh bo‘lamiz. Shu nuqtai nazardan u o‘z zamondoshalridan o‘zib ketgan genial aql sohibi va o‘ziga xos tafakkur tarziga ega shaxs bo‘lgan deyishga haqlimiz. Ya’ni Ibn Sino bugun biz targ‘ib etayotgan sinergetik tafakkur sohibi bo‘lgan, aks holda bu qadar nazariy va amaliy ilmiy, ijodiy faoliyati ma’lum bir qobiqqa o‘ralib qolinar, chiziqli tafakkur sohibi sifatida o‘zini namoyon etmas edi.

Ibn Sino o‘z davridagi ko‘plab ma’naviy boqimandalarni keskin tanqid ostiga oladi. Sababi o‘sha davr kishilarining aksariyati chiziqli tafakkur tarzida fikr yuritgani barobarida islom dining asl mohiyatidan bexabar olimni kofirlikda ayblashadi. U esa bunga javoban o‘zining ma’naviy jasoratini ko‘rsatib, quyidagicha xulosa qiladi:

O‘zni dono bilgan bu uch-to‘rt nodon,
Eshak tabiatin qilur namoyon.
Bular suhbatida sen ham eshak bo‘l,
Bo‘lmasa “kofir” deb qilishar e’lon [8,13].

Ya’ni shoir ma’naviy jihatdan past odamlar bilan munozara qilishdan ko‘ra, sukut saqlashni va o‘z fikrida qolishni yaxshiroq deb hisoblaydi. Chunki

“Ko‘rlarga quyosh ravshan emasku,
Johilga to‘g‘ri yo‘l pinhon shuningdek” [6,78].

To‘g‘ri yo‘lni topish uchun esa insonda aql-idrok va nochiziqli tafakkur tarzi shakllangan bo‘lishi kerak. Shundagi olamdagi masala va muammolarga obektiv munosabat bildirish imkoni paydo bo‘ladi.

Ibn Sino nafaqat ijtimoiy munosabatlarga, balki barcha maslagaga nochiziqli tafakkur tarzi asosida munosabat bildirgan.

Hamyurtimiz Dilmurod Bozorov sinergetik dunyoqarashning tarixiy ildizi haqida to‘xtalib, Ibn Sino o‘z davridayoq insonning miya faoliyatini o‘z-o‘zini tashkillashtirish qobiliyatiga ega ekanligini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilganini to‘g‘ri anglaydi [9,14]. Ya’ni alloma miyani barcha sezgilardan boruvchi nervlar markazi, umuman inson nerv sistemasining markazi ekanligi haqidagi ta’limotni ilgari suradi.

Uning g‘oyalarida, ta’limotida sinergetikaning tarixiy ildizlari mujassam deyishga haqli yana bir qancha dalillarni keltirish mumkin.

Masalan, insonning fiziologiyasida tartibsizlik, tartibot va beqarorliklar mavjud, ular sistematik xarakterga ega ekanligini “Urjuza” (tibbiy doston) asarida shunday ifodalaydi:

Sovuqlikni paydo qilgan narsa tanda –
Ba’zan buzar tartibotni bor badanda [10,42].
(A.Irisov tarjimasi)

Barqarorlik, ya’ni faylasuf – shoir tili bilan aytganda mo‘tadillik sistema sifatida mavjud va doimiy harakatda, o‘zgarishda bo‘lgan inson uchun naqadar muhim ekanligini aniq ilmiy tibbiy asoslar bilan tushuntirib beradi: “Aytamizki, sog‘liqni saqlashda ba’zi umumiy va zaruriy sabablarni mo‘tadil qilishdir. Bunda, asosan, quyidagi yetti narsani mo‘tadil qilishga ko‘proq e’tibor berishilishi kerak: mizojni mo‘tadil qilish, yeyiladigan va ichiladigan narsalarni tanlash, gavdani chiqindidan tozalash, to‘g‘ri tuzilishni saqlash, burunga tortiladigan narsalarni yaxshilash, jismoniy va ruhiy harakatlarni mo‘tadil qilish: shu harakatlar jumlasiga ma’lum darajada uyqu va uyqusizlik ham kiradi” [6,231].

NATIJALAR VA MUXOKAMA

Ibn Sinoning nochiziqli tafakkur tarzida fikrlashiga quyidagi gaplari ham asos bo‘la oladi: “Taroq aslida sochlarni tartibga solish uchun ishlatiladi-yu, lekin shu bilan birga u sochlarning ba’zilarini joyidan ham yulib tushiradi”. Odiiy so‘zlardek tuyulgan bu gap mohiyatida, biz har doim ham tartibli holat tartibsizlik bo‘lishi ham mumkin ekangiliga ishoradir.

Avvalgi bobda aytganimizdek, sinergetik tafakkur sohibi dunyoni yangicha qarash va nuqtalar orqali ko‘ra oladi va kelajakni yorqinroq tasavvur etadi. Bu xususiyat Ibn Sinoda ham mavjud edi. Shuning uchun uni bemalol sinergetik tafakkur egasi sifatida tadqiq etish uchun barcha asoslarimiz bor. Shunday bo‘lsa-da fikrimiz isboti sifatida yana misollar keltiramiz.

Ibn Sino odamning jismoniy holati, strukturasi va xossalarini tadqiq etish barobarida, ruhiyat va ma’naviy yetuklik borasida ham ma’lumotlar keltiradiki, ularda ham sinergetik g‘oyalarni payqash qiyin emas. Chunonchi:

“Harakat ham me’yoridan oshib ketsa, charchatar,
Faqat tana emas, balki ruhga horg‘inlik yetar.
Notabiiy haroratga beradi u alanga,
Rutubatdan xalos etib, aziyat berar tanga” [6,93].

Bu gaplar sistemadagi entropiylik jarayonlarini esga solmoqda. Bu yerda insonni yaxlit bir murakkab ochiq sistema sifatida qabul qilib, undagi etropiylik holati, aynan ichki energiya yo‘qotishi natijasida yuz beradigan tartibsizlik aniq ko‘rsatilgan. Haqiqatdan ham tizim dissitativ holatda ta’siri muhitga energiya sochish oqibatida unda ichki tartibsizlik oshadi va beqaror holatga kelib qoladi. Ya’ni odam og‘ir jismoniy amallardan so‘ng betartib, me’yoridan ziyod harakat qila boshlasa o‘z ichki kuch-qudratini yo‘qotadi. Natijada beqaror holatga tushib qoladi. Uni “notabiiy harorat” mahv etadi. Tashqariga energiya sochish (dissipatsiya) natijasida tizim tezligi susayadi. Beqarorlik oshadi, ya’ni aziyat chekadi.

Ibn Sino insonni beqaror holatga keltiruvchi narsalar va holatlar jumladan, g‘azablanish, asabiylalshish haqida fikr yuritib, shunday deydi:

“G‘azablanish qo‘zg‘atadi harorat har kishida,
Jismu jonga yetar zarar, mantiq bo‘lmas ishida” [6,94].

Demak, g‘azablangan inson beqarorlik holatida bo‘lib uning ichki olamida xaos jarayoni yuzaga keladi va unda mantiqiy vobastalik yo‘qoladi.

Yana bir qiziq tomoni, Ibn sino fikricha, dard, kasallik ichki elementlar, ya’ni a’zolarning beqaror harakati natijasida yuzaga kelib, u bo‘hron tushunchasiga e’tibor qaratadi. Bo‘hronni xususiyati nuqtai nazaridan beqarorlik holati deyish mumkin. Tana va ruhdagi darddan kelib chiqqan bo‘hron oqibatida ichki elementlarning o‘zgarishi va yangilanishini ta’kidlab, o‘zaro kurashishi oqibatida qay birining energiya va ta’sir kuchi ko‘p bo‘lsa, o‘sha barqarorlikni ta’minlaydi, degan ma’noda yozadi:

Tanda o‘zgarishlar bo‘lsa, shitob, ayon,
Bunday dardga deyilaridi dardi bo‘hron.
Bu o‘zgarish gar mashaqqat pallasidir,
Dard va nafs kurashida bo‘lur zohir.
Oz vaqt ichra bunda odam topar vafot,
Yo xavf ketib, o‘lim arib, qaytar hayot.
Bo‘lgay kurash va olishuv-chin mojaro,

Odamdagi quvvat bilan illat aro.
G‘olib kelib quvvat agar, ketsa bo‘hron,
Shunda odam sihhat topib qolgay omon.
Yo dard undan g‘olib kelsa, ketsa bo‘hron,
Shunda hayot maydonini olur mamot [6,140].

Ayon bo‘lmoqdaki, stixiyali tarzda bo‘lsa-da, Ibn Sino mohirona tarzda sistemadagi nomuvozanatlilik, beqarorlik, bifurkatsion holat va elementlarning o‘zgarishi, tashqi ta’sir va fluktatsion holatlarning qonuniyatlarini bo‘hron, dard, kurash, o‘lim tushunchalari orqali izohlagan.

Olim va faylasuf B.O.To‘rayev ham Ibn Sinoning fazo va vaqt haqidagi ta’limotini mohirona tarzda tahlil etib, allomaning ilmiy salohiyati ancha uzoqni ko‘ra olganligidan kishini hayratga soladi [11,233] deb ta’kidlaydi. Ibn Sino relyativistik fizika yaratilmasdan qariyib 10 asr ilgari fazo vaqt mohiyatini tahlil etishda relyatsion konsepsiyasini ilgari surgan. Uning fikricha, fazo va vaqt bir-biri bilan va harakat bilan chambarchas bog‘langandir [12,165]. Fazo vaqtdan, vaqt esa fazodan tashqarida bo‘lmaydi. Ibn Sino fikricha, vaqtning tabiati o‘tmishdan kelajakka qarab oqishdan iborat, hozirgi zamon o‘tmishni kelajak bilan tutashtirib turuvchi hozirgi lahzadir. Shu payt, shu lahzadan turib o‘tmish va kelajakni taqqoslash mumkin: o‘tmish vaqtning bo‘lib o‘tgan qismi, kelajak esa vaqtning bo‘lajak qismi. Vaqt shu ketma-ketlikda oqishini davom ettiradi, u orqaga qaytmaydi. Shu jihatlarni inobatga olsak, Ibn Sino vaqtni lahzalar ketma-ketligining dinamik tarzda ketma-ket almashib borishi tarzida ifodalab bergan. Bu uning vaqt oqimini izohlashda dinamik konsepsiyada turganligini anglatadi. Ibn Sino vaqt va fazoni sinkretik birlikda tushungan. Ya’ni, uning fikricha, vaqt, fazo va harakat bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ular bir-birini taqozo qiladi, to‘ldiradi va biri boshqalarisiz mavjud emas [12,143].

XULOSA

Buyuk faylasuf olimning mavzu doirasidagi qarashlariga xotima sifatida uning yana bir ijobiy fikrini keltirmoqchimiz. U “Risolat at-tayr” risolasida shunday yozadi: “Ey haqiqiy birodarlar! Ilonga o‘xshab o‘z po‘stlaringizdan chiqinglar” [10,72]. Bizningcha Ibn Sino kishi o‘zidagi yomon xulq-atvorlarni illatlarni chiqarib tashlasa, ya’ni o‘z po‘stidan chiqsa, shundagina u sof insonga xos ish qilgan bo‘ladi. Alloma insondagi ortiqcha ziyon keltiruvchi xulq-atvor va sifatlarni ilon po‘stiga qiyoslaydi. Demak, inson to hayot ekan o‘zini o‘zi tarbiyalovchi, o‘zini o‘zi boshqaruvchi, mustaqil fikrlovchi mavjudot bo‘lib qolmog‘i darkor.

Xulosa, Abu Ali ibn Sino qomusiy olim sifatida boshqa fan sohalari qatori falsafada ham o‘z ta’limot va maktabini yarata olgan va undan keyingi mutafakkir olimlarning ilmiy izlanishlarida muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qilgan. Alloma nochiziqli tafakkur tarzida fanlarning muammolarini yechishga sistemali tarzda yondashgan, jumladan, sinergetik g‘oyalar asosida ko‘plab ilmiy kashfiyotlar va ixtirolar sohibi bo‘lgan.

Uning shaxsiyati va ilmiy-falsafiy merosi nafaqat Sharq, balki G‘arb ilm-fan rivojlanishi muhim asos bo‘lib xizmat qilgan. Bu bilan nafaqat faxrlanish, balki shunga munosib avlod bo‘lish uchun uni komil shaxs sifatida yoshlarga o‘rnak qilib ko‘rsatishimiz, hali hamon o‘rganilmagan asarlarini ko‘proq tadqiq etishimiz lozim. Shuningdek, bugun fan sohasida, jumladan, falsafa va tibbiyot sohasidagi yutuqlar zamirida buyuk vatandosh mutafakkirimizning ilmiy izlanish va xulosalari mujassam ekanligini aniq ilmiy dalillar asosida kengroq targ‘ib etishimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. -Т: “Ўзбекистон” НМИУ, 2-нашри,2020. 508 б. Б. 191.
2. Абу Али Ибн Сино. Мен англаган дунё / Абу Али Ибн Сино. –Т.: Sharq, 2012. –Б.5.
3. Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. Т.: “Ўзбекистон”, 2009, Б.18.
4. Рахманов Б. Инсоннинг руҳий-маънавий ўз-ўзини ташкиллаштиришининг фалсафий илдизлари.
5. Абу Али ибн Сино. Шеърлар ва тиббий достон (Тузувчи Абдусодиқ Ирисов). -Тошкент, 1981. Б.14.
6. Абу, Али ибн Сино. Мен англаган дунё/ Абу Али ибн Сино. – Т.: Sharq. 2015. Б. 30.
7. Нурбой Жабборов. Буюк Ибн Сино образининг янгича талқини. Шарқ юлдузи журнали, №2, 2021. Б.148
8. Абу Али ибн Сино. Шеърлар. Т.: “Фан”, 1965, Б.13
9. Бозоров Д. Синергетик парадигма. –Т.: –Б.14.
10. Абу Али ибн Сино. Саломон ва Ибсол. – Т.: 1980. –Б.42.
11. Тўраев, Бахтиёр О.Т. Танланган асарлар: 3 жилдлик / Б.О. Тўраев; Имом Бухорий халқаро маркази. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. – 376 б. Б.233.
12. Ибн Сина. Избранные философские призведение. М.:Наука, 1980. С.165.

13. Rizaev I. I. The structure of the social system as the basis for the self-organization of society //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2019. – Т. 1. – №. 7. – С. 190-195.

14. Turaev B. O. Muhammed ibn Musa Khorezmiy the owner of non-linear thinking //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 47-61.

15. Nasirdinovich U. F., Rakhmatullaevna U. L. History and contemporary social and moral approach to rationalism //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – С. 1796-1801.

16. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.

17. Mardonov R. Humanization and humanitarization of higher education in the conditions of the information society //Conferencea. – 2021. – С. 21-28.

18. Husan M. Dialectics of Potentiality and Virtuality in Space and TIME //European Scholar Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 40-42.

19. Muminova Z. Personality: wellness and spiritual education //Academicia Globe. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 20-23.

20. Тураев Б. О. и др. Синергетика: мохияти, конуниятлари ва амалиётда намоён булиши //Т.: Навруз нашриёти. – 2017. – С. 12-13.